

(4-K) 4.03. 7011.


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ 194
2019 yil «___» _____

«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. A.S.Soleev

«___» 16 2019 yil



O'RTA OSIYO GIDROGRAFIYASI
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	100000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi	140000 – Tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi	5140700 – Gidrometeorologiya

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishechi o'quv reja va o'quv dasturiga
muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:


G'aniyev Sh.R. - SamDU, «Gidrometeorologiya» kafedrasi assistenti
Baratov X.A. - SamDU, «Gidrometeorologiya» kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Hikmatov F.H. O'zMU «Quruqlik gidrologiyasi» kafedrasi mudiri Geografiya fanlar doktori
professor

Shirinboyev D.N. - SamDU, «Gidrometeorologiya» kafedrasi assistenti


Fanning ishchi o'quv dasturi "Gidrometeorologiya" kafedrasining 2019 yil " " avgustdagidagi
"1"-son yig' ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun
tavsiya etilgan.


Kafedra mudiri:  prof. Xoliqulov Sh.T

Fanning ishchi o'quv dasturi "Geografiya va ekologiya" fakultet kengashida muhokama etilgan
va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil avgustdag'i hisobli bayonnomasi).

Fakultet kengashi raisi:  K.Z. Ibragimov

Kelishildi: O'quv uslubiy boshqarmasiga bosibfig'i

 dots.B. Aliqulov

 dots. T. J. Yunusova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi

**Nº _____
2019yil «___» _____**

**«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. A.S. Soleev**

«___» 2019yil

**O'RTA OSIYO GIDROGRAFIYASI
ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi
Ta'lif sohasi
Ta'lif yo'nalishi

100000 – Gumanitar soha
140000 – Tabiiy fanlar
5140700 – Gidrometeorologiya

Samarqand 2019

**Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga
muvofiq ishlab chiqildi.**

Tuzuvchi:

Baratov X.A. - SamDU, «Gidrometeorologiya» kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Hikmatov F.H. O‘zMU «Quruqlik gidrologiyasi» kafedrasi mudiri Geografiya fanlar doktori professor

Shirinboyev D.N. - SamDU, «Gidrometeorologiya» kafedrasi assistenti

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Gidrometeorologiya” kafedrasining 2019 yil “__” iyundagi “__”-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ prof.Xoliqulov Sh.T.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Geografiya va ekologiya ” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil __ iyundagi __-sonli bayonnomasi).

Fakultet kengashi raisi: _____ dots.L.Z.Ibragimov

Fakultet uslubiy kengashi raisi: _____ dots. T.Jumaboyev

Kelishildi: O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ dots.B.Aliqulov

Kirish

Hozirgi kunda zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Bu borada gidrologiya bakalavrlarini tayyorlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur ta’lim yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasida “O‘rta Osiyo gidrografiysi” o‘quv fani umumkasbiy fanlarning tayanch gidrologik fanlar blokida alohida o‘rin egallaydi. Bo‘lajak gidrologiya bakalavrlari ushbu fanni o‘rganish natijasida yer yuzidagi hidrografik tarmoqlar, ularning shakllanish qonuniyatları va O‘rta Osiyoning hidrologik xususiyatlari hamda O‘rta Osiyo hidrografiysi haqidagi bilimlarni egallaydilar.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga Yer yuzining quruqlik va okeanlarga bo‘linishi, Dunyo okeani va uning qismlari, materiklar, bosh suv ayirg‘ichlar, ichki va tashqi oqim oblastlari, ularda shakllangan hidrografik tarmoqlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda O‘rta Osiyo O‘rta Osiyo hidrografiysi, suv ob‘ektlari haqida umumiylar bilimlarni berishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga hidrosfera va uning tashkil etuvchilari - okeanlar, dengizlar, daryolar, ko‘llar, yer osti suvlari, muzliklarga tavsif beruvchi O‘rta Osiyo hidrografiysi fani haqida umumiylar bilimlarni berish; materiklar O‘rta Osiyo hidrografiysi, materiklarning yirik daryolari, ko‘llari, suv omborlari, muzliklari, qor qoplami va antropogen hidrografik tarmoqlari haqida ma‘lumotlar berish; O‘rta Osiyo daryolarining suv rejimi va to‘yinsh sharoti, muzliklari, ko‘llari va boshqa suv havzalarining umumiylar bilimlarni berish; O‘rta Osiyo hidrografiysi tarmoqlarning qonuniyatlarini o‘rgatish, suv ob‘ektlariga hidrografik tavsif berish bo‘yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“O‘rta Osiyo hidrografiysi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- daryolar, ko‘llar, suv omborlari, muzliklardan iborat hidrografik tarmoqlar; Orol havzasining hidrografik tarmoqlari; O‘rta Osiyoning o‘ziga xos hidrologik xususiyatlari; hidrografik tarmoqlarning geografik joylashish qonuniyatlarini **bilishi kerak**;

- tog‘ daryolari havzalarida tabiiy oqim hosil bo‘lishi, oqim muvozanati va oqimning sarflanish oblastlarini chegaralay olish; Orol havzasida ajratilgan hidrologik rayonlarni va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflay olish, hidrografik tarmoqlarni shakllantiruvchi barcha suv ob‘ektlarining o‘zaro bog‘liqligini asoslash va bu borada to‘plagan bilimlarni amaliyotga tadbiq etish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**;

- O‘rta Osiyo daryolari, ko‘llari, suv omborlari va ular to‘yinadigan tog‘ muzliklarining hidrografik ko‘rsatkichlarini qiyosiy solishtirish; daryo tarmoqlari zichligining hudud bo‘yicha o‘zgarishini baholash; O‘rta Osiyoning o‘ziga xos hidrologik xususiyatlarini yorita olish; suv ob‘ektlariga umumiylar bilimlarni berish va to‘plangan hidrografik ma‘lumotlarni ilmiy tahlil qila olish, ulardan tegishli amaliy xulosalar chiqara olish **malakalariga ega bo‘lishi kerak**.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma – ketligi

“O‘rta Osiyo hidrografiysi” o‘quv fani umumkasbiy fanlar blokidagi tayanch kurslardan biri bo‘lib, mazkur fan 7-8 semestrda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish yo‘nalishning namunaviy o‘quv rejasidan o‘rin olgan matematik va tabiiy – ilmiy (oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalari, fizika, ekologiya), umumkasbiy (hidrologiyaga kirish, yer bilimi asoslari) fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Bo‘lajak hidrometeorologiya bakalavrlari o‘zlarining ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatida, jumladan, hidrografik tarmoqlar monitoringini olib borishda, to‘plangan ma‘lumotlar asosida daryo tarmoqlarini haritalashtirishda va ulardan xalq xo‘jaligining turli sohalarida samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishlarida “O‘rta Osiyo

gidrografiysi” fanidan to‘plagan nazariy bilimlariga tayanadilar. Shu jihatdan mazkur o‘quv fani zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali gidrometeorologiya bakkalavrlarini tayyorlash tizimining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning mazkur o‘quv fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, bu jarayonda yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda O`rta Osiyo gidrografiysiga oid darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, atlaslar, maxsus ma’lumotnomalar, elektron materiallar, kinofilmlar va ko‘rgazmali qurollardan foydalilanadi. Fanni o‘qitishda rejalashtirilgan ma’ruza, amaliy mashg‘ulot darslarida hamda mazkur fan bo‘yicha o‘quv dala amaliyotini o‘tish va undan hisobotni rasmiylashtirishda mavzuga mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.

“O`rta Osiyo gidrografiysi” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlар bo‘yicha taqsimlanishi: gidrometeorologiya yo‘nalishi

T/R	Mavzular nomi	Jami soat	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil ta’lim
1.	<i>Kirish. O`rta Osiyo gidrografiysi fanining maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti.</i>	4	2	2	
2.	<i>O`rta Osiyoda hidrologiyaning rivojlanish tarixi</i>	8	2	2	4
3.	<i>O`rta Osiyoning hidrologik xususiyatlari</i>	8	2	2	4
4.	<i>Daryolarining to‘yinishi va ular oqim rejimining asosiy xususiyatlari</i>	10	2	4	4
5.	<i>O`rta Osiyo daryolarining o‘rtacha ko‘p yillik oqimi. Daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi</i>	12	4	4	4
6.	<i>O`rta Osiyo daryolarining daryolari suvining harorati va muzlash hodisalari</i>	8	2	2	4
7.	<i>O`rta Osiyo daryolarining daryolarning loyqa oqiziqlari va suv yig‘ilish maydonlari yuzasining yuvilishi</i>	8	2	2	4
8.	<i>O`rta Osiyo daryo tarmoqlari. Atrek daryosi havzasi</i>	10	2	2	4
9.	<i>Turkmanistonning berk havzalari. Havzaning umumiy ta’rifi.</i>	8	2	2	4
10.	<i>Amudaryo havzasi. Havzaning umumiy ta’rifi</i>	10	2	4	4
11.	<i>Panj va Vaxsh daryosi irmoqlari.</i>	10	2	4	4
12.	<i>Amudaryo daryosi irmoqlari</i>	8	2	2	4
13.	<i>Kofirnihon, Surxondaryo, Sheroboddaryo, Qashqadaryo daryolari irmoqlari</i>	8	2	2	4
14.	<i>Zarafshon daryosining irmoqlari</i>	8	2	2	4
15.	<i>Sirdaryo havzasi. Havzaning umumiy ta’rifi</i>	10	2	4	4
16.	<i>Norin va Qoradaryo irmoqlari</i>	8	2	2	4
17.	<i>Sirdaryo daryosi irmoqlari</i>	8	2	2	4
18.	<i>Chirchiq Ohangaron, Keles daryolari havzasi</i>	8	2	2	4
19.	<i>Talas, Chuy daryolari havzalari</i>	8	2	2	4
20.	<i>Issiqko‘l havzasi</i>	8	2	2	4
21.	<i>Balkash ko‘li havzasining janubiy qismi</i>	8	2	2	2

22	<i>Muzliklari.</i> Muzliklarning tog‘ tizmalari bo‘yicha taqsimlanishi.	8	2	4	2
23	<i>Ko‘llar va suv omborlari</i>	8	2	4	2
24	<i>Yer osti suvlari.</i>	6	2	2	2
	Jami	172	50	62	60

Asosiy qism

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

O`rta Osiyo gidrografiysi *fanining maqsadi*, *vazifalari*, *tadqiqot ob`ekti* va *predmeti*. O`rta Osiyoning *gidrologik xususiyatlari*. O`rta Osiyoning tabiiy geografik o`rni, geologik tuzilishi, relefi, iqlim sharoiti. Atmosfera yog‘inlari, bug‘lanish, daryo oqimi. O`rta Osiyoning suv balansi tenglamasi

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: zinama-zina, muammoli ta’lim, aqliy hujum.
Adabiyotlar: A1;A2; A5; Q8; Q9. Q11; Q13.

Daryolarining to‘yinishi va ular oqim rejimining asosiy xususiyatlari. O`rta Osiyo daryolari tasniflari (E.M.Oldekop, L.K.Davidov, V.L.Shuls, O.P.Shcheglova). To‘yinish manbalarini miqdoriy baholash usullari. Daryolarning yomg‘ir suvlari hisobiga to‘yinishi hissasini O.P.Shchelova usuli bilan aniqlash.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: KEYS, muammoli ta’lim, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A3; A4; A5; Q6; Q7. Q12

O`rta Osiyo daryolarining o‘rtacha ko‘p yillik oqimi. *Daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi.* O`rta Osiyoning suv balansi tenglamasi. Oqimning hudud bo‘yicha taqsimlanishiga mutlaq balandlikning ta’siri. O‘rtacha ko‘p yillik oqimni V.L.Shuls usuli bilan aniqlash. O`rta Osiyoning tog‘li o‘lkasida “namlik” qutblari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: muammoli ta’lim, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A2; A5; Q7; Q9. Q10

Daryolar oqimning yil davomida taqsimlanishi. Oqimning yil davomida taqsimlanishini o‘rganishning suv xo‘jaligidagi roli. Muzliklar va qor suvlari hisobiga to‘yinadigan daryolar oqimining yil ichida taqsimlanishi xususiyatlari. O`rta Osiyo daryolarida to‘lin suv, toshqin suv va kam suvli davrlar.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: qor bo‘roni, muammoli ta’lim, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A4; A5; Q7; Q8. Q14

O`rta Osiyo daryo tarmoqlari. Atrek daryosi havzasi (Kaspiy dengizi havzasi). Turkmaniston berk havzalari. Orol dengizi havzasi. Balxash ko‘li havzasi.. Havzalarning umumiy ta’rifi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: FSMU, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A3; A4; A5; Q9; Q10. Q13

Amudaryo havzası. *Havzaning umumiy ta’rifi. Panj, Vaxsh, Amudaryo.* Daryolarning gidrografik ta’rifi, to‘yinishi, rejimi, oqiziqlari, yirik irmoqlari **Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:** Zinama-zina, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1;A2 A4; Q8; Q10 Q11 Q14.

Sirdaryo havzası. *Havzaning umumiy ta’rifi. Norin, Qoradaryo. Sirdaryo.* Daryolarning gidrografik ta’rifi, to‘yinishi, oqim rejimi, oqiziqlari, yirik irmoqlari. Cirdaryo va Qoradaryoning Farg‘ona vodiysidagi irmoqlari. Daryolarning gidrografik ta’rifi, to‘yinishi va oqim rejimi, oqiziqlari, yirik irmoqlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1;A3; Q8; Q9, Q11.

Muzliklari. Muzliklarning tog‘ tizmalari bo‘yicha taqsimlanishi. Amudaryo havzasi muzliklari. Sirdaryo, Issiqko‘l havzalari muzliklari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: bumerang aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1;A2; A3 A4 Q5; Q7, Q11.

. **Ko‘llari.** Tog‘lardagi ko‘llar va ularning paydo bo‘lishi. Tekislikdagi ko‘llar va ularning paydo bo‘lishi, o‘ziga xos xususiyatlari. Ko‘llarning genezisi bo‘yicha tafsifi. Orol dengizi, uning O‘rta Osiyo tabiatini va iqlimining shakllanishida tutgan o‘rni. Orol dengizi bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolar va ularning yechimi haqida.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: aqliy hujum.

Adabiyotlar: A2; A3; Q6; Q9, Q10.

**«Gidrometeorologiya» yo‘nalishi 4-kurs talabalariga « O‘rta Osiyo gidrografiysi »
fanidan ma’ruza uchun
TAQVIM ISH REJASI**

T/R	Mavzular nomi	Soat
1	Kirish. O‘rta Osiyo gidrografiysi <i>fanining maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti.</i>	2
2	O‘rta Osiyoda hidrologiyaning rivojlanish tarixi	2
3	<i>O‘rta Osiyoning hidrologik xususiyatlari</i>	2
4	<i>Daryolarining to‘ynishi va ular oqim rejiminining asosiy xususiyatlari</i>	2
5	<i>O‘rta Osiyo daryolarining o‘rtacha ko‘p yillik oqimi. Daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi</i>	4
6	<i>O‘rta Osiyo daryolarining daryolari suvining harorati va muzlash hodisalari</i>	2
7	<i>O‘rta Osiyo daryolarining daryolarning loyqa oqiziqlari va suv yig‘ilish maydonlari yuzasining yuvilishi</i>	2
8	<i>O‘rta Osiyo daryo tarmoqlari. Atrek daryosi havzasi</i>	2
9	<i>Turkmanistonning berk havzalari. Havzaning umumiyligi ta’rifi.</i>	2
10	<i>Amudaryo havzasi. Havzaning umumiyligi ta’rifi</i>	2
11	<i>Panj va Vaxsh daryosi irmoqlari.</i>	2
12	<i>Amudaryo daryosi irmoqlari</i>	2
13	<i>Kofirnihon, Surxondaryo, Sheroboddaryo, Qashqadaryo daryolari irmoqlari</i>	2
14	<i>Zarafshon daryosining irmoqlari</i>	2
15	<i>Sirdaryo havzasi. Havzaning umumiyligi ta’rifi</i>	2
16	<i>Norin va Qoradaryo irmoqlari</i>	2
17	<i>Sirdaryo daryosi irmoqlari</i>	2
18	<i>Chirchiq Ohangaron, Keles daryolari havzasi</i>	2
19	<i>Talas, Chuy daryolari havzalari</i>	2
20	<i>Issiqko‘l havzasi</i>	2
21	<i>Balkash ko‘li havzasining janubiy qismi</i>	2
22	<i>Muzliklari. Muzliklarning tog‘ tizmalari bo‘yicha taqsimlanishi.</i>	2
23	<i>Ko‘llar va suv omborlari</i>	2
24	<i>Yer osti suvlari.</i>	2
	Jami	50

Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Har bir amaliy mashg‘ulot, dastlab ishning maqsadini va mavzuga oid nazariy bilimlarni qisqacha yoritishdan boshlanadi. So‘ng ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun talab qilingan vazifalar aniq belgilanib, ishni bajarish tartibi esa qo‘yilgan vazifalar ketma-ketligiga asoslanadi. Barcha ishlar olingan natijalarning tahlili bilan yakunlanadi. Har bir amaliy mashg‘ulotni bajarish uchun berilgan ma’lumotlarga tayanib, talabalarga alohida variantlar taklif etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiyligi tavsiya etiladigan mavzulari:

O‘rta Osiyo daryolarining o‘rtacha ko‘p yillik oqimi. Daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi

Qo'llaniladigan ta'lismi texnologiyalari: zinama-zina, muammoli ta'lismi, aqliy hujum.
Adabiyotlar: A1;A2; A5; Q8; Q9. Q11; Q13.

O'rta Osiyo daryo tarmoqlari. Atrek daryosi havzasi daryolari

Qo'llaniladigan ta'lismi texnologiyalari: KEYS, muammoli ta'lismi, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A3; A4; A5; Q6; Q7. Q12

Turkmaniston berk havzasi daryolari (Tajang, Murg'ob, Kopetdog'ning shimoliy yonbag'ridan oquvchi daryodlar.

Qo'llaniladigan ta'lismi texnologiyalari: muammoli ta'lismi, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A2; A5; Q7; Q9. Q10

Amudaryo havzasi daryolari (Vaxsh, Panj, Kofirnihon, Surxondaryo, Sherobod, Zarafshon, Qashqadaryo)

Qo'llaniladigan ta'lismi texnologiyalari: qor bo'roni, muammoli ta'lismi, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A4; A5; Q7; Q8. Q14

Sirdaryo havzasi daryolari (Norin, Qoradaryo, Farg'ona vodiysi daryolari, Chirchiq, Ohangaron, Kalas, Aris va boshq.)

Qo'llaniladigan ta'lismi texnologiyalari: FSMU, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A3; A4; A5; Q9; Q10. Q13

Chuy, Talas havzasi daryolari.

Qo'llaniladigan ta'lismi texnologiyalari: Zinama-zina, aqliy hujum.

Adabiyotlar: A1; A2 A4; Q8; Q10 Q11 Q14.

Nº	Mavzular nomi	Soat
1	<i>O'rta Osiyo daryolarining o'rtacha ko'p yillik oqimi. Daryolar yillik oqimining o'zgaruvchanligi</i>	4
2	<i>O'rta Osiyo daryo tarmoqlari.</i> Atrek daryosi havzasi daryolari	4
3	<i>Turkmanistonning berk havzasi daryolari.</i>	4
4	<i>Amudaryo havzasi daryolari.</i>	6
5	<i>Panj va Vaxsh daryosi irmoqlari.</i>	8
6	<i>Amudaryo daryosi irmoqlari</i>	8
7	<i>Kofirnihon, Surxondaryo, Sheroboddaryo, Qashqadaryo daryolari</i>	4
8	<i>Zarafshon daryosining daryolari</i>	4
9	<i>Sirdaryo havzasi daryolari</i>	4
10	<i>Norin va Qoradaryo daryolari</i>	4
11	<i>Sirdaryo daryosi daryolari</i>	4
12	<i>Chirchiq Ohangaron, Keles daryolari</i>	4
13	<i>Talas, Chuy daryolari</i>	4
Jami:		62

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishni tayyorlashda "O'rta Osiyo gidrografiysi" fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga nazariy tayyorgarlik ko'rish;
- *darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;*
- 1. tarqatma materiallardan foydalangan holda fanning ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- 2. avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- 3. maxsus adabiyotlardan foydalangan holda, fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- 4. yangi gidrologik va gidrometrik texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- 5. fanning talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlarini va mavzularini chuqur o'rganish;
- 6. masofaviy (distansion) ta'limgan hamda internet tarmog'idan foydalanish va h.k.

Mustaqil ish uchun quyidagi mavzularni chuqur o'rganish tavsiya etiladi:
masofaviy (distansion) ta'limgan foydalanish va h.k.

Nº	Mustaqil ta'lismi mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajarilish muddati	Hajmi (soatda)
1	O'rta Osyoning gidrologik xususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni	reja asosida	2

		bajarish		
2	Daryolarining to‘yinishi va ular rejimining asosiy xususiyatlari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
3	O‘rtta Osiyo daryolarining V.L.Shults bo‘yicha tasnifi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	2
4	O‘rtta Osiyo daryolarining O.P.Sheglova bo‘yicha tasnifi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	2
5	O‘rtta Osiyoda o‘rtacha ko‘p yillik oqimi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	2
6	V.L.Shultsning o‘rtacha ko‘p yillik oqimni izohlovchi izochiziq kartalari bilan ishlash.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
7	Oqimning shakllanishiga relefning ta’siri.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
8	Yillik oqimning o‘zgaruvchanligini belgilovchi omillar.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
9	Daryolar yillik oqimning o‘zgaruvchanligini belgilovchi mezon (Sv).	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
10	Amudaryo havzasi daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
11	Sirdaryo havzasi daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
12	Zarafshon havzasi daryolar yillik oqimining o‘zgaruvchanligi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
13	Chirchiq – Ohangaron havzasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
14	Farg‘ona vodiysi O‘rtta Osiyo gidrografiysi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
15	Qashqdaryo va Surxondaryo havzasi gidrografiysi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
16	O‘rtta Osiyo tog` muzliklari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
17	O‘zbekiston suv omborlari, kanallari va kollektor-drenaj tarmoqlari	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	reja asosida	4
Jami				60

Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy usullari, yangi pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Dasturdagi barcha ma’ruza mavzularini o‘tishda ta’limning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Bumerang”, “Yolpig‘ich”, “Aqly xujum”, “Masofaviy ta’lim”, “Zanjir”, “Klaster” hamda “Muammoli ta’lim” texnologiyasining “Munozarali dars” kabi usullarini qo‘llash o‘rinlidir. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida fanga tegishli bo‘lgan maxsus qurilmalar, o‘lchov asboblari, jadvallar, chizmalar va slaydlardan foydalanish nazarda tutiladi.

“O‘rtta Osiyo gidrografiysi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

“O‘rtta Osiyo gidrografiysi” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajaratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan

bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lif standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YAN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lif muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini ballar orqali ifodalanadi. «O'rta Osiyo gidrografiysi» fani bo'yicha talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarining bilim darajas
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarining o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlardan jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V * O}{100}$

bu yerda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darjasini (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va oraliq ON turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yildi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va YAN turlari kalendor tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlardan ular uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtadan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmaslik tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekanasi, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		Maksimal	1-ON	2-ON

1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftalarining yuritilishi va to'liqligi	15	07	08
2	Talabalarning mustaqil ta'lif topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	05	05
3	Og'zaki savol-javoblar, kolokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	05	05
	Jami ON ballari	35	17	18

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari		
		Maksimal	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftalarining yuritilishi va holati	15	07	08
2	Mustaqil ta'lif topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	05	05
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	05	05
	Jami JN ballari	35	17	18

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi. Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quydagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko'rsatkichlar	YAN ballari	
		Maksimal	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
	Jami	30	0-30

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

«O'rta Osiyo gidrografiysi» fani bo'yicha reyting nazoratlari grafigi

Ta'lif yo'naliishi: Gidrometeorologiya

Umumiy o'quv soati: - 112 soat, ma'ruza - 50 soat, amaliy mashg'ulot - 62 soat, mustaqil ish - 60 soat

Ishchi o'quv dasturidagi mavzular tartib raqami (qo'shimcha topshiriq mazmuni)	Umumiy soat					Baholash turi	Nazorat shakli	Bali		Muddati (hafta)
	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Seminar mashg'ulot	Mustaqil ish	Jami			mak. ball	min. ball	
1-5 1-8		32		16	48	JB-1	Kundalik nazorat, davomat, nazorat ishi, uy ishi	17,0		Reja asosida
1-11 1-17	26			14	40	ON-1	yozma	18,0		Jadval bo'yicha
6-11 9-17		30		16	46	JB-2	Kundalik nazorat, davomat, nazorat ishi, uy ishi	18,0		Reja asosida
1-11 1-17	24			14	38	ON-2	yozma	17,0		Jadval bo'yicha
1-11 1-17	50	62		60	172	JN+ON		70,0	39,0	
Jami	50	62		60	172	YAB	yozma	30		Jadval bo'yicha

Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. Сирлибоева З.С. Марказий Осиё гидрографияси. Маърузалар матни. – Тошкент: Унив., 2000.
2. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. 1,2 часть. – Л.: Гидрометеоиздат, 1965.
3. Шульц В.Л. Машрапов Р. Ўрта Осиё гидрографияси. –Тошкент.: Ўқитувчи, 1969.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

4. Большаков М.Н. Водные ресурсы рек Советского Тянь-Шаня и методы их расчета – Фрунзе: Илым, 1974.
5. Мировой водный баланс и водные ресурсы Земли. –Л.: Гидрометеоиздат, 1974.
6. Очерки развития гидрометеорологии в Средней Азии.–Санкт-Петербург: ГМИ, 1993.
7. Расулов А.Р., Ҳикматов Ф.Х., Айтбаев Д.П. Гидрология асослари. -Тошкент□ Унив, 2003.
8. Ҳикматов Ф.Х., Сирлибоева З.С., Айтбаев Д.П. Кўллар ва сув омборлари географияси, гидрологик хусусиятлари. -Тошкент: Университет, 2000.
9. Ҳикматов Ф.Х., Айтбоев Д.П. Кўлшунослик // Ўқув қўлланма.- Тошкент□ У-т, 2002.
10. Глазирин Г.Е. Горные ледниковые системы, их структура и эволюция.–Л.: ГМИ, 1991.
11. Щеглова О.П. Питание рек Средней Азии. - Изд-во СамГУ,1960.
12. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан.-Ташкент□ НИГМИ, 2000.
13. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. –Ташкент: НИГМИ, 2007.
14. “Гидрография” фани бўйича ўқув-услубий мажмуа. -Тошкент: Университет, 2011.
15. ЎзМУ ички тармоғи.
16. www.undp.uz (Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Таракқиёт Дастури веб-сайти)
17. www.gwpcacena.org
18. www.Ziyo.net